
Oliygo'ning "Qatag'on qurbonlari" muzeyiga tashrif uyushtirildi

Davlatimiz rahbarining 2023 yil 22 dekabr kuni Ma'naviyat va ma'rifat markazi Kengashining kengaytirilgan yig'ilishida mahallalarda ma'naviy-ma'rifiy muhitni isloh qilishga alohida e'tibor qaratildi. Shu kunlarda mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar, tinchlik qadri, bugungi kunga shukronalik, sog'lom ma'naviy muhitni yaratish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish, ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi oshirish borasidagi sa'y-harakatlarni xalqqa yetkazish maqsadida "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida "Mahallada duv-duv gap" ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Bugun Farg'ona shahridagi 1- va 6-umumta'lim maktabining yuqori sinf o'quvchilari hamda "Simtepa", "Ibrat", "Yoshlar" mahalla fuqarolar yig'inlari aholisi "Mahalla duv-duv gap" turkum tadbirlari doirasida Farg'ona Davlat universitetida joylashgan "Qatag'on qurbonlari" muzeyga tashrif buyurishdi.

Tashrif davomida muzey eksponati bilan tanishish jarayonida qatag'onga uchragan yurtdoshlarimizning ayanchli taqdirlari haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

2024-01-17 10:17:24